

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA MALIKA SODIQJONOVNA

**JAMIYATNI YANGILANISH DAVRIDA GENDER MUNOSABATLARI:
TADBIRKOR AYOL FENOMENI MISOLIDA**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 364.144. 396.1. 323.326 (575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

G‘aniyeva Malika Sodiqjonovna

Jamiyatni yangilanish davrida gender munosabatlari: tadbirkor ayol fenomeni
misolida 3

Ганиева Малика Содикжоновна

Гендерные отношения в период обновления общества: на примере феномена
женщины предпринимателя 21

Ganieva Malika Sodikjonovna

Gender relations in the period of social renewal: the example of the phenomenon of
a woman entrepreneur 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA MALIKA SODIQJONOVNA

**JAMIYATNI YANGILANISH DAVRIDA GENDER MUNOSABATLARI:
TADBIRKOR AYOL FENOMENI MISOLIDA**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal740 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti web-sahifasi (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Azizbek Abdumalikovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Zamilova Rimma Ramilyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

R.T.Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqiyosida sodir bo'layotgan globallashuv, modernizatsiyalashuv jarayonlari gender munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda jamiyatning umumiy taraqqiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. BMT sha'feligida o'tkazilgan ayollar maqomi bo'yicha 1975-2000 yillar oralig'ida o'tkazilgan "To'rt xalqaro konferentsiya"lar doirasida "BMTning Ayollar o'n yilligi", 2010 yilga kelib esa "BMT Ayollar" maxsus tuzilmasi faoliyat yurita boshladi. 2018 yilda BMT tomonidan e'lon qilingan "Va'dalardan harakatlar sari: 2030 - yilgacha barqaror rivojlanish sohasi kun tartibidagi Gender tengligi"¹ nomli dasturida ustuvor yo'nalishlaridan biri "Ayollar tabbirkorligi"ni qo'llab-quvvatlash tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy jamiyatda ayollar tadbirkorligini ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar prizmasida o'rganish va global rivojlantirish dolzarbligini belgilamoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida gender tengligi, xususan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish istiqbollarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini o'rgangan holda fundamental ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, BMTning xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot va o'quv institutida (ISTRAW)² "Ayollar kamsitilishi"ning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashish, "Gender tengligi", "Gender index"si, "Ayollar tadbirkorligi (biznesi)"ga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Albatta, mazkur masala G'arbona qarashlarga "Erkak va ayollar o'rtasidagi har qanday dioskriminatsiya holatlarini bartaraf etishga qaratilgan"ligi hamda Sharqona "Ayolni - Ona timsoli bilan qiyoslanadi" va quydagi "Ayolning joni qirqta" kabi qarashlarga ajratish mumkin. Bunday sivilazatsion yondashuvlarni ilgari surish orqali ayollarning iqtisodiy faolliklarini oshirish jamiyat farovonligi indikator sifatida ahamiyatlidir. Ayollar tadbirkorligi nafaqat oila a'zolarining iqtisodiy, ijtimoiy, balki butun bir jamiyat barqarorligiga o'z ta'sirini o'tkazayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O'zbekiston jamiyatining yangi taraqqiyot bosqichida gender tengligi, jumladan "ayollar tadbirkorligi"ni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida gavidalanmoqda. Jamiyatning iqtisodiy ravnaqi va aholi turmush darajasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilishi o'z navbatida xotin-qizlarimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faollashuviga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlari va gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda"³. Bu bilan yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy hayotida gender tengligi masalasi islohotlarni markazida ekanligini anglatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni taziyoq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli va "Xotin-qizlar va

¹ <https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/Library/Publications/2018/SDG-report-Gender-equality-in-the-2030-Agenda-for-Sustainable-Development-2018-ru.pdf>

² <https://www.un.org/ru/conferences/women>

³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: О'zbekiston, 2022. - Б 267.

erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish **chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PF-87-sonli Farmonlari, 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-sonli Qarori kabi huquqiy -me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamiyatimizning yangilanish davrida “gender tengligi” va “ayollar tadbirkorligi”ni rivojlantirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning va O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asar, nutq va ma‘ruzalarida belgilangan vazifalar tadqiqotning ilmiy-nazariy dasturi sifatida olingan⁴.

Jamiyatda shaxslararo tenglik, gender tengligi va ayollar mehnat faoliyati, xususan ayollar tadbirkorligi muammolariga alohida ijtimoiy masala sifatida Qadimgi Yunon faylasuflaridan Antifont, Likafronn, Salon, Sineka, Platon, Arastu, Suqrot, Pifagor, Tsitsiron, Foma Akvinskiy, Demokrit, Emiliy Papinianlar tomonidan o‘rganilganligini kuzatsak, Sharqda Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Gazzoliy, Imom Buxoriy, Az-Zamahshariy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Boburmirzo, Konfutsiy, Lao-Szi kabi mutafakkir va davlat arboblari asarlari hamda ilmiy qarashlari asos bo‘lib xizmat qilgan. Klassik Garb olimlardan I.Kant, K.Marks, F.Engels, Z.Freyd, M.Veber, E.Fromm, J.J.Russo, Sh.L.Monteske, Dj.Lokk, Mery Uolt Kraft, G.T.Mill, J.S.Mill, R.Peterson, K.Veymeyerlarning ilmiy asarlarida gender tengligi va xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatlarini sotsio-psixologik hamda ijtimoiy-falsafiy kontekstida tadqiq qilishga harakat qilishgan⁵. MDH vakillaridan O.A.Belyaeva, O.M.Vovchenko, E.I.Stebunova, Ya.Sadovnichaya, O.A.Voronina, L.N.Nadominskaya, E.Gruzdeva, V.Mixaylyuk, E.Novikovalarning nazariy va empirik tadqiqotlari bilan bir qatorda ilmiy ishlarida zamonaviy jamiyat taraqqiyotida erkak va ayollar o‘rtasidagi tenglik, ularning ishbilarmonlik faoliyatlarini amalga oshirishlaridagi yuzaga keladigan

⁴ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 592.; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - 508 б; Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019. - Б. 400.; Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4-жилд. - Тошкент. Ўзбекистон, 2020. - Б. 456.; Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2022. - Б. 267.; Каримов И.А. Асарлар тўплами, 1-24 жилдлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996-2015.

⁵ Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da keltirilgan.

muammolarini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy-falsafiy hamda madaniy tomondan yoritilgan bo'lsada, ayollar tadbirkorligi keng tadqiq etilmagan⁶.

Jamiyatdagi gender tengligi va ayollar mehnati(tadbirkorligi) masalalariga sharqona va teologik nuqtai nazaridan Qadimgi "Avesto"dan tortib muqaddas manbalarga tayangan holda Markaziy Osiyoda ham o'ziga xos diniy-ma'rifiy qarashlar tarkib topgan hamda sharqona tamaddunida katta ta'sirga ega. Insonda, xususan ayollarda mehnat va kasbiy ko'nikmalari, ishbilarmonlik fazilatlarini shakllanishida islom madaniyati, milliy, sharqona qadriyatlar, shuningdek ommaviy madaniyat elementlarining uyg'unlashuvini kuzatishimiz mumkin. Mintaqamizda tarixan qaror topgan Turonzamin va Mavuronnahrdan to suveren O'zbekistonning boy milliy-madaniy qadriyatlari teologik, mental hamda global qorishma sifatida mazkur muammoga doir ijtimoiy-falsafiy qarashlarda vorisiylik, novatorlik va progressiv tamoyillari asosida rivojlanganligini e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan X.Shayxova, Q.Nazarov, V.Alimasov, Sh.Madaeva, O.Nishonova, M.Qaxxorova, S.Safaeva, E.Sultonova, Ya.Abdullayeva, D.Alimova, T.Egamberdieva va N.Annaevalar jamiyatimiz ijtimoiy rivojlanish jarayonida gender tengligi, ayollar tadbirkorligi muammolarini, milliy-mental determinantlari va global-proksiologik mohiyatini ijtimoiy-falsafiy, psixologik hamda tarixiy xususiyatlarini o'rganish borasida o'z tadqiqotlarini olib borganlar⁷. Shunday bo'lsa-da, bizning tadqiqotimizga mos tadqiqot sifatida N.R.Annaevaning jamiyatning transformatsiyalashuv jarayonlarida yangi iqtisodiy tushunchalari qatorida ayol tadbirkor fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatdan mahsus mustaqil milliy dissertatsion tadqiqot sifatida keltirishimiz mumkin⁸. Yuqorida e'tirof etilgan mualliflar va ularning manbaalari mavzuimiz yoritish uchun akademik asos bo'lib xizmat qilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining Dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-son "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" mavzusidagi yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatni yangilanish davrida gender munosabatlari: tadbirkor ayol fenomeni misolida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamiyatning sivilizatsion taraqqiyot bosqichlarida erkak va ayollar o'rtasidagi tenglik, ya'ni gender pariteti masalasini teologik hamda ekzistentsional xususiyatlari tadbirkor ayol shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllanishidagi ahamiyatini qiyosiy tahlil orqali ochib berishdan iborat;

gender indexsi jamiyatdagi ayollar tadbirkorligining detirminanti ekanligi hamda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy indikatori sifatida, uning turmush sharoitini yahshilashga ta'sir etuvchi sifatida ekanligini signifikatsion jihatdan asoslashdan iborat;

⁶ Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da keltirilgan.

⁷ Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da keltirilgan.

⁸ Аннаева Н. Р. Аёллар тadbirkorлигининг генезиси, назарияси ва амалиёти (Ўзбекистон мисолида) Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. - Самарканд: 2018. - Б. 56.

jamiyatda shaxs iqtisodiy faoliyat yuritishi global transformatsiya jarayonida ayollar tadbirkorligi fenomenologik asoslarini aksiologik va proksiologik ildizlarini aniqlash;

jamiyatdagi yangilanish tendentsiyalari gender tengligi va ayol tadbirkor tushunchalar o'rtasidagi simmetrik o'xshashliklar, ularning yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy ataraksiyasi tizimidagi dennotatsion va kennotatsion jihatlarining sotsiopsixologik hamda ijtimoiy-falsafiy dalillashdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti yangilanayotgan jamiyatda gender tengligi jarayonlaridagi tadbirkorlik ayol fenomeni olingan.

Tadqiqotning predmeti jamiyat transformatsion jarayonlarida erkak va ayollar tengligini ta'minlash, tadbirkor ayol fenomenining o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, analiz va sintez, tarixiylik, mantiqiylik, umumiylik va xususiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida shaxs emansipatsiyasi, inson huquqlarini mustahkamlash borasida, erkak va ayollar o'rtasidagi tenglik, ya'ni gender pariteti masalasini teologik hamda ekzistentsional xususiyatlari tadbirkor ayol shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllanishidagi ahamiyati qiyosiy tahlil orqali ochib berilgan;

gender indexsi ko'rsatkichlari jamiyatdagi ayollar tadbirkorligining detirminanti ekanligi hamda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy indikatori sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining turmush sharoitini yaxshilashga ta'sir etuvchi asosiy element ekanligini signifikatsion mohiyati asoslangan;

jamiyatda shaxs iqtisodiy faoliyat yuritishi global transformatsiya jarayonida ayollar tadbirkorligining fenomenologik asoslarini aksiologik va proksiologik ildizlari aniqlangan;

jamiyatdagi yangilanish tendentsiyalari gender tengligi va ayol tadbirkor tushunchalar o'rtasidagi simmetrik o'xshashliklar, ularning yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy ataraksiyasi tizimidagi dennotatsion va kennotatsion asoslari sotsiopsixologik hamda ijtimoiy-falsafiy jihatdan dalillash orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Taraqqiyotimizning yangi bosqichida "Ijtimoiy davlat" va "Fuqarolik jamiyati" institutlarini mustahkamlash, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda uchraydigan gender konfliktlarini xal qilish, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali, *ayol-oila-mahalla-jamiyat* zanjirini mustahkamlash orqali "tadbirkor ayol" milliy fenomenning teologik va ekzistentsional mazmun mohiyatini ochib berishga amaliy yordam bergan.

Xotin-qizlarda sog'lom ilmiy dunyoqarash, kasbiy-novatorlik madaniyatni shakllantirishda ilm-fan, ta'limning muhim signifikatsion omil ekanligi empirik tahlil etilgan.

Jamiyat hayotida oila, ota-ona, ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-madaniy jihat va xususiyatlari ajdodlarning avlodlar ma'naviy birligi tarbiyada an'anaviy strategik qadriyat ekanligi aksiologik va proksiologik ildizlari ilmiy-nazariy asoslangan.

Shaxs va jamiyat munosabatlaridagi xotin-qizlar o'zgarishlarning ijtimoiy muhitga ta'siri va yoshlar dunyoqarashlaridagi attraktsion xususiyatlari kasbiy ta'lim tizimidagi dennotatsion va konnatatsion jihatlari maxsus tadqiqotlar asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiyalarda muhokama qilingani, OAK ro'yxatidagi milliy va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy ahamiyatiga jamiyatimiz yangilanish davrida erkak va ayollar o'rtasidagi barcha ko'rinishdagi kamsitishlarni oldini olish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash yangilangan Konstitutsiyamizda ilgari surilgan "Ijtimoiy va dunyoviy davlat" kontsepsiyalari mazkur muammolarni tartibga solishda milliy qonunchiligimizga xalqaro inson huquqlar normalarining implementatsiya qilish orqali jamiyatimizda uchraydigan inson huquqlarini kamsitishning har-qanday holatlarini oldini olishga xizmat qiladi, shuningdek ayol tadbirkor shaxsini rivojlantirish va mazkur yo'nalish bo'yicha olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Gender tengligi va ayol tadbirkor fenomenini o'rganishga doir tadqiqot natijalarining amaliy natijalaridan oliy va professional ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "Gender falsafasi", "Biznes falsafasi", "Biznes sotsiologiyasi" va "Tadbirkorlik asoslari" fanlarida ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda, aholi, ayniqsa xotin-qizlar real daromadlarini oshirish, kambaq'allikni qisqartirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha besh muhim tashabbus loyihasida kelib chiqib belgilangan vazifalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan jamoat birlashmalari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish uchun ilmiy-uslubiy manbaa sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. So'nggi yilda ayollar va erkaklar uchun tenglik huquqi hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, ayollar tengligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ayollarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va liberallashtirish orqali, amaldagi o'zgarishlar hamda tub islohotlar davrida yosh tadbirkorlar, xususan ayol tadbirkorlar faoliyatini amalga oshirishda xalqaro tajribani o'rganish orqali milliy tadbirkorlik fenomenini rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangicha yondashuvini ishlab chiqishga, tadbirkor ayollar huquqiy maqomining normativ me'yorlarini mustahkamlash orqali ularning o'z faoliyati davomida teng huquqlilik tamoyiliga amal qilish, mexanizmlarini shakllantirish va mustahkamlash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy taklif hamda uslubiy ishlanmalarida o'z amaliy ifodasini

topib kelmoqda. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023 yil 3 oktyabrdagi 1-17-21-2751-son dalolatnomasi) Natijada, tadqiqotchi tomonidan “Aholimiz, ayniqsa xotin-qizlar o‘rtasida tenglik va mehnatsevarlik ruhida ta’lim-tarbiya berish orqali respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, qabul qilinayotgan normativ xujjatlarning mazmun-mohiyatini onglariga singdirish orqali faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish”ga doir ijtimoiy texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishi doirasida ishlab chiqilgan ilmiy - amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-2023 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo‘nalishida belgilangan “Milliy qadriyatlar, ma’naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ‘iboti” 40-bandi “Jamiyatda va oilada xotin-qizlarning mavqeyini ko‘tarish, oilaviy ajrimlarni oldini olish, ma’naviy sog‘lom muhitni shakllantirish, farzandlar tarbiyasida ayollarning ma’sulligini oshirish, xotin-qizlar o‘rtasida boqimandalik holatlarini ko‘payishini oldini olish, qizlarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish yuzasidan “Sharq ayoli ma’rifati” targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. “Aholimiz, ayniqsa xotin-qizlar o‘rtasida tenglik va mehnatsevarlik ruhida ta’lim-tarbiya berish orqali, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash, o‘z manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil fikr yurituvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lish nodavlat-notijorat tashkilotlari, ijtimoiy institutlar, xususan oila, mahalla, kabi ta’lim-tarbiya institutlarining samarali, tizimli va tartiblashtiruchi elementlar ekanligi” asoslantirgan; “Har bir oila - tadbirkor” degan g‘oya asosida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarda mamlakatimiz taraqqiyotiga faol shaxsiy ishtiroki orqali, ijtimoiy ta’luqlilik xissini mustahkamlash, bunyodkorlik, yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash g‘oyalarini hayotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat o‘rtasida amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 31 avgustdagi 350-sonli dalolatnomasi) Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif-tavsiyalar va xulosalar yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash, yoshlar, ayniqsa ayollar o‘rtasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ular qalbida demokratik qadriyatlarni singdirishning yangi ijtimoiy texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan ma’naviy - ma’rifiy sohadagi tadbirlarini amalga oshirishda targ‘ibotchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

“Ijtimoiy davlat” kontsepsiyasini ilgari surishda yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini oshirishda ularda tadbirkorlik, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy xulosalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala ekanligi asoslab berilgan. Yoshlar, shuningdek xotin-qizlar dunyoqarashida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllanishida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan demokratlashuv va modernizatsiyalashuv jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari, xususan gender tengligi tamoyiliga sodiqlikni tarbiyalash, ularda tadbirkorlik, kasb olishga bo‘lgan qiziqishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,

yoshlarimiz barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi **X.Sulaymonova nomidagi Respublika Sud ekspertizasi markazining Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 12 oktyabrdagi 2/23-son dalolatnomasi**). Natijada yoshlar, ayniqsa xotin-qizlar dunyoqarashida jamiyatimiz demokratlashuv va modernizatsiyalashuv jarayonlariga, mamlakatimiz barqaror rivojlanishiga nisbatan mustaqil munosabatlarining shakllanishi, ularda faol fuqarolig positsiyasini mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Yosh ayol tadbirkorlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ya'ni mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ hujjatlar bazasini takomillashtirish, shuningdek ularda mazkur bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlashtirish bilan bog'liq innovatsion usul-vositalarini ishlab chiqish bo'yicha metodik hamda nazariy xulosalarni amaliy faoliyatlariga tadbiq etilgan. Bundan tashqari xorijiy tajribaning o'rganish orqali yosh ayol tadbirkorlar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida taraqqiy etgan mamalakatlarning ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribalaridan foydalanishga oid ishlab chiqilgan innovatsion ilqor texnologiyalardan agentlik tomonidan o'tkazib kelinayotgan seminar-treninglar, davra suhbatlari, hamda boshqa yo'nalishlardagi amaliy tadbirlarni tashkil qilishda keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda tadqiqot ishi Yangi O'zbekistonda gender tengligini yanada mustahkamlash, xususan tadbirkor ayol fenomenini shakllantirish va milliy madaniyatimiz tarkibida shakllanishi, yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, kasbiy bilim hamda ko'nikmalarni egallash orqali jamiyatimiz yanada taraqqiy etishida muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 3-oktyabrdagi 1-17-21-2751-son dalolatnomasi) Natijada, bu takliflar mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishida nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ma'ruza shaklida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (2 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va usullari yoritilgan. Tadqiqot davomida olingan ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliliigi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi,

muhokamasi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi **“Jamiyat yangilanishida gender munosabatlarining tadbirkor ayol fenomeni misolida tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb atlatadi va unda mazkur tushuncha ijtimoiy falsafa kategoriyalari prizmasi orqali tadqiq qilingan. Ma'lumki, “ayol tadbirkorligi” tushunchasi ifodalaydigan fenomenning mohiyatini ochib berish uchun avvalo unga ta'rif va tavsif berish, bu hodisaning genezisi va evolyusiyasini o'rganish, jamiyatdagi boshqa ijtimoiy tuzilmalar bilan bog'liqligini, struktura va funktsiyalarini, ahamiyati va istiqbolini belgilash talab etiladi.

Tadqiqot mobaynida ayollar tadbirkorligi bo'yicha izlanish olib borgan tadqiqotchilar asarlaridagi ta'riflar o'rganildi, qiyosiy tahlil qilindi hamda shu paytgacha bu tushuncha o'z mukammal ta'rifini topmagani ayon bo'ldi. Mazkur hodisani falsafiy tahlil qilish jarayonida tushunchaga quyidagi yangicha ta'rifni berish imkoni tug'ildi: “ayollar tadbirkorligi” - bu gender munosabatlar doirasidagi chiqadigan, ijtimoiylashgan biznes ma'nosiga ega bo'lgan, jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan, xotin-qizlarning kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga tayyorligi hamda shu faoliyat turi bilan amalda mashg'ul bo'lishini anglatadigan tushunchadir”.

Odatda, ayollar ta'lim-tarbiya, tibbiy va maishiy xizmat, engil sanoat kabi sohalarda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga moyil bo'ladilar, shuningdek, yangi yo'nalish bo'lgan “ijtimoiy tadbirkorlik”ni rivojlantirishga samarali xissa qo'shmoqdalar. Ayol tadbirkorligi bir vaqtning o'zida bir necha sosial rollarni: ona, turmush o'rtog'i, malakali mutaxassis funktsiyalarini qo'shib olib borish ma'nosini beradi. Biznes olamida hech kim ayol kishining oiladagi bandligini, ona bo'lish istagini inobatga olmaydi. Va, aksincha, ziddiyat tamoyiliga ko'ra, bola-chaqa, uy-ro'zg'or ayollar uchun ustuvor bo'lsa, biznes-daromadga putur etadi. Shuning uchun tadbirkor xotin-qizlardan juda noziklik bilan muvozanatni saqlash talab etiladi. Kuzatishlar ko'rsatishicha, ayollar tadbirkorligi sohasida yutuqlarga erishgan sari uning sosial roli ham, oila va jamiyatdagi o'rni ham transformasiyaga uchraydi. Bu ayniqsa axloqiy-ma'naviy munosabatlarda muammolar keltirib chiqaradi.

Zamonaviy ayol tadbirkorligi, bozor munosabatlarining murakkablashishi, “mulkdorlar sinfi”ning shakllanishi tufayli bir qator ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lmoqda. Yurtimiz mustaqilligi arafasida va istiqloqlarning dastlabki yillarida ko'plab xotin-qizlar qo'shni davlatlardagi bozorlarga qatnay boshladilar. Bu ham tadbirkorlikning o'sha ilk davriga xos oddiy shakli edi. O'tish davrida faqat O'zbekiston emas, MDHning boshqa davlatlarida ham xotin-qizlar ijtimoiy ahvolining og'irlashishi, sog'ligining yomonlashuvi, ishsizligining ortishi kuzatildi. Hayotning eng katta og'irligi aksariyat hollarda ayollar zimmasiga tushdi. Erkaklar ishga zor bo'lib yurganda xotinlar uy ichkarisida, hatto hijobga burkanib o'ltirishi kerak, degan qarashlar ham kuchaydi. Xullas, “ayollar tadbirkorligi” kattagina qarshilikni engib o'tishi, o'zining ijtimoiy samaradorligini isbotlab berishi lozim edi.

Ayollar tadbirkorligining immanent belgilari va gender xususiyatlarini o'rganishda quyidagi xususiyatlar tahlil etilgan: - ayol tadbirkorligi ixtiyoriy, erkin tarzda tashkil etiladi va olib boriladi; - ishbilarmon ayollar o'z ishlariga ko'proq

xotin-qizlarni jalb etish xususiyatiga egadir; - ayol tadbirkorligi jismonan engil vazifalarni bajarishga qaratilgan; - tashqi stimulg va qo'llab-quvvatlashga ko'proq muhtoj bo'ladi; - fluktasion xususiyatga ega. Mazkur ishda tadbirkorlik faoliyati mutlaqo ixtiyoriy, erkin faoliyat turi ekani, undagi tavakkalchilik (risk) o'zbek ayoli uchun eng avvalo oilasi, farzandlari osoyishtaligi, farovon yashashi uchun zarurligi ta'kidlanadi.

Ayollarga xos immanent belgilar to'g'risida mulohaza yuritganda xitoylik faylasuf ayol Szin-Nin Sunning quyidagi fikrlarini qayd etish joiz deb hisoblaymiz:

birinchidan, “ayol - go'zallik ijodkoridir”. Ular o'zini go'zallik, musaffolik va erdagi tartibning saqlovchilar sifatida tutishi zarur. Hayot ayolning qo'llariga muhtojdir.”⁹ uning fikricha, ayollar liderligi va tadbirkorligi sharqona an'analarga, xususan, Dao falsafasiga mos keladi. Sharq ayoli qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, deb uqtiradi bu dono ayol, u go'zallikni targ'ib etuvchi, axloqiy ideallarni o'zida ifoda qiluvchi timsol bo'lib qoladi;

ikkinchidan, “ayol - insoniylikni asrovchidir. “Mazkur qoidasini Szin-Nin Sun ayolning azaldan oilaparvar, farzandsevar xilqat bo'lib kelgani unga “erkaklar bilan bir qatorda biznesga moslashishga”¹⁰ - yordam beradi, deb yozadi. Tadbirkor ayoldagi ushbu umuminsoniy fazilat xotin-qizlar psixofiziologik tuzilishiga muvofiq keladi;

uchinchidan, ayollarning sertuyg'u, hissiyot(emotsiya)ga beriluvchan ekanligi ko'p bor ta'kidlangan. Ular o'z faoliyatiga ham ushbu ruhiy holatlarni olib kirishga, bahsli mavzularni hal etishda hissiyotga erk berishga intiladi. Shuning uchun bu xususiyatning paradoksal tomoni shundaki, tadbirkor ayollarda intuitsiyaga tayanish keng rivojlangan bo'ladi;

to'rtinchidan, ayolda hayotni asrash, qadrlash va sevish hissi kuchli rivojlangan bo'ladi. Ushbu his-tuyg'u tufayli tadbirkor ayollar o'z atrofiga huddi shunday tuyg'ularga ega xotin-qizlarni tezlik bilan to'play oladi va birlashtiradi. Bunday xotin-qizlar, yig'ilishdan yoki tadbirkor ayol bilan ishlashga rozi bo'lganida mablag', daromad orttirishdan ko'ra dili-diliga yaqin hammaslak, sirdosh, dugona uchratganidan xursand bo'ladi;

beshinchidan, ayollar zaifa emas, ular raqobatda faoliyat ko'rsatishga qodir. Tadbirkor ayollar ishchan xotin-qizlarni o'z atrofiga to'plaganida raqobatdosh muhitda yashashga, ishlashga to'g'ri kelishini unutmaydi. Ulardagi introspektiv xislatlar birgalashib harakat qilishi jarayonida ekstrospektiv yondashishga aylanadi, xizmat turlarini kengaytirib, raqobat muhitida yashashga, ishlashga chorlaydi. Sharq ayoliga xos xislat shundaki, u tadbirkor sifatida raqobatdoshini engish, bankrot qilish, bozordan siqib chiqarish uchun emas, balki raqobatda o'ziga ishongan sub'ekt sifatida qatnashishni ko'zlaydi. Sharqona odob, axloq normalariga rioya etish, mehnat qilib obro', foyda topish o'zbek tadbirkor ayollariga xos xislatdir.

Xotin-qizlar duch kelgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka (KBXTga) jur'at etavermaydi. Ularga jismonan engil vazifalarni bajarish yoqadi. Shuning uchun ham sanoat, qurilish, tog'-konchilik va geologiya-qidiruv ishlari, muhofaza

⁹ Цзинь-Нин Цун. Искусство войны. Древнекитайская мудрость Сунь-Цзы для женщин, стремящихся к успеху. - Москва: ЭКСМО, 2008. - С. 114.

¹⁰ O'sha asar. - С. 114.

xizmatlari kabilarda ayollar tadbirkorligi deyarli uchramaydi. Ijtimoiy hayotda ba'zan uchrab turadigan ochiq yoki pinhona segregatsiya, ya'ni jinsiga qarab odam ajratish va konvergentsiya aynan ayol va erkak munosabatlarida, ularning gender aloqalarida aks etib keladi.¹¹ Agar segregatsiya ko'rinishlari qoralansa, hatto unga qarshi xalqaro hujjatlar, konventsiyalar qabul qilingan bo'lsa-da, konvergentsiya, ya'ni turli ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro yaqinlashish ijtimoiy borliqning atributi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda zamonaviy tadbirkorlik falsafasi ayollar yoki erkaklar ishbilarmonligidagi segregatsiyani atayin chuqurlashtirish, tafovutlarga urg'u berishda emas, balki ularning differentsial xususiyatlarini bilish uchun muhimdir, degan xulosaga kelingan. Bunday yondashuv tadbirkorlikning immanent belgilarini chuqurroq bilishga, uni tashkil etish va boshqarishning samarali mexanizmlarini topishga imkon beradi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Gender tengligining tadbirkor ayol fenomeni bilan dialektik aloqadorligi”** deb nomlanadi. Unda iqtisodiy demokratiya va uning “Taraqqiyot strategiyasi”da tutgan o'rni, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy omillari hamda oilaviy tadbirkorlik genezisi, evolyusiyasi, istiqbollari tahlil qilingan.

Tadqiqotda qayd etilganidek, “iqtisodiy demokratiya” tushunchasi XX asrning 30-yillaridan G'arb mutaxassislarida chiqishlarida o'z mazmuni va hajmiga ega bo'ldi, ta'rif va tavsifga ega bo'ldi. Dissertantning fikricha, insonning xususiy mulkka egalik qilishi, uni boshqarish, ko'paytirish, sotsiumning iqtisodiy-xo'jalik hayotida qatnashish, kichik biznes va tadbirkorlikni mehnat faoliyat turi sifatida erkin tanlash kabilarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy-falsafiy tushunchadir. “Iqtisodiy demokratiya” umumiy demokratiyaning bir yo'nalishi xolos. Umuman demokratiya qanday ijtimoiy mohiyat, qonuniyat va printsiplarga ega bo'lsa, iqtisodiy demokratiya ham identikdir. Falsafaning juda qadimiy, Aristotelga borib taqaladigan tamoyili - umumga taalluqli mohiyat, printsiplarni bilish xususiyning substantsional asosini anglash imkonini beradi, chunki “umum orqali xususiyni”¹² asoslash mumkin. ammo bu xususiyning immanent belgilarini inkor qilmaydi, ularni umumning ichiga singib ketishi ham emas, u Forobiyning ustoz sifatida nazarda tutgan sillogizm, ya'ni xususiyning mohiyatini chuqurroq anglash uchun “umumdagi asos”ga murojaat etish usulidir.

Bir so'z bilan aytganda, demokratiyaning “universal modeli” yo'q, u milliy an'analarga, qadriyatlarga ega makonda, har bir xalqning ijtimoiy borlig'idan joy olgan tajribalari va axloqiy-ma'naviy imperativlari asosida shakllanganidagina ijobiy ahamiyat kasb etadi, hayot tarziga aylanadi. Iqtisodiy demokratiya xususiy manfaatlarni, iqtisodiy manfaatlar plyuralizmini ifoda etadi, mana shunisi bilan u ahamiyatga ega bo'ladi, qiziqish uyg'otadi. “Iqtisodiy demokratiya” tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'zbek tadqiqotchisi B.Talapov maxsus o'rgangan. Uning qayd etishicha, “iqtisodiy demokratiya tushunchasi bugun umuminsoniy demokratiyaning tarkibiy qismiga aylangan bo'lsa-da, bizda u hali ijtimoiy-falsafiy voqelik sifatida o'rganilmagan. Buni eng avvalo bozor iqtisodiyotining mustaqillik

¹¹ Бендас Т.В. Гендерная психология лидерства. - Оренбург: Логос, 2000. - С. 283.

¹² Аристотель. Сочинения в четырех томах. Т.2. - Москва: Мысль, 1978. - С. 173.

yillarida joriy etilgani, shuningdek, ko'p vaqtgacha ijtimoiy-falsafiy fikr eski dogmatikadan xalos bo'lmagani bilan izohlash mumkin".¹³

Siyosiy va iqtisodiy demokratiya o'rtasida dialektik uyg'unlik mavjud, ushbu uyg'unlik G'arbda va Sharqda o'z an'analariга muvofiq namoyon bo'ladi. Shuning uchun siyosiy erkinlik bilan iqtisodiy demokratiya o'rtasidagi ziddiyatlar va uyg'unliklar bir xil talqin etilishi mumkin emas. "Sharqda erkinlik shaxsning davlat, siyosiy tizimdan mustaqilligi tarzida e'tirof etilmagan, shaxs manfaatlari bilan ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi farq anglab etilmagan. Natijada, shaxs ijtimoiy yoki davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, ilohiy tarzda esa Xudo o'rnatgan tartiblarga itoat etuvchi ob'ekt sifatida qaralgan. Ijtimoiy manfaatlar bilan shaxs manfaatlari o'rtasida farq mavjudligini e'tirof etmaslik, tan olmaslik klassik demokratiya tamoyillariga mos kelmaydi. Aynan shuning uchun ham G'arb, zamonaviy demokratiya haqidagi ta'limotlar Sharq boshqaruv andozalarini demokratik boshqarishga taalluqli tizim, faoliyat sifatida tan olmaydi".¹⁴ Mazkur fikrlardan ma'lum bo'ladiki, sharqona boshqarish bilan g'arbona boshqarishni tushunishda ma'lum bir farqlar mavjud.

Dissertasiyada biz tahlil qilayotgan tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: "tadbirkorlik demokratiyasi - ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning ifodasi. U ideal sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirishga, daromad olish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishga, pirovard natijada, umumijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan maqsaddir". "Taraqqiyot strategiya"si, shak-shubhasiz, yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilagan, shu jumladan biz uchun tamomila yangi hodisa - ayollar tadbirkorligiga keng yo' ochgan ijtimoiy-iqtisodiy kontseptsiya hisoblanadi. Ma'lumki, oilaviy biznes, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi, mayda tadbirkorlik (ko'chada qurt va pista sotishni ham qo'shganda) o'zbek xalqiga qadimdan xos bo'lgan odatdir.¹⁵ tarixiy-etnografik manbalar shuni ko'rsatadiki, oilaviy hunarmandchilik, aholiga madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish halqimizda juda qadimdan odat tusiga kirgan. Masalan, "Xalq an'anaviy ijodi ko'proq uy, oila, mahalla kabi aholi yashash joylarida rivojlanish xususiyatiga ega. Bu tarixiy-madaniy an'ana hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q... Xalq an'anaviy ijodi aslida nasliy, ustoz-shogird tarzida yashab rivojlanib kelgan, bu an'ana hozir ham davom etmoqda."¹⁶

Oilaviy munosabatlar va oilaviy korxonadagi tartiblar, boshqarish usullari o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Agar bozor iqtisodiyoti, uning ta'sirida shallanayotgan hayot tarzi, demokratik qadriyatlar oilaviy tadbirkorlikka, oilaviy korxonani boshqarishga ta'sir etayotgan, ularda yangicha tasavvurlar va yondashishlarni shallantirayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonlar oilaviy munosabatlarni ham chetlab o'tolmaydi. Natijada, qaysi jinsning etakchiligi yoki

¹³ Талапов Б. Бозор иқтисодиётига ўтиш ва мамлакатни модернизация қилиш - миллий демократик тараққиёт омили. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2011. - Б. 5.

¹⁴ О'sha asar. - Б. 7.

¹⁵ Синдаров К., Жуманазаров И. Тadbirkorlik субъектларини текширишнинг ҳуқуқий асослари. - Тошкент: "Янги аср авлоди", 2006. - Б. 7.

¹⁶ Алимасов В., Манзаров Ю. Ўзбекистонда маънавий- маърифий соҳа: назария ва амалиёт. - Тошкент: "Наврўз" нашр., 2014. - Б. 48.

segregatsiya emas, balki egalitar munosabatlar asosiy ko'rsatkichga aylanadi. Bu aslida bozor iqtisodiyoti shakllantirayotgan yangi demokratik qadriyatlardir.

Fuqarolik jamiyati inson huquq va erkinliklari ustuvorligini tan olgan, ularni ta'minlash va himoya qilishni o'z asosiy maqsadiga aylantirgan jamiyatdir. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini himoya qilish ham uning asosiy hususiyatlaridan biriga kiradi.

Shu bilan birga avvalo tadbirkorning o'zi unga tegishli ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan keng foydalanishi, ularni himoya qilishga intilishi darkor. Ta'kidlash joizki, ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-huquqiy va mulkiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda ham o'z ifodasini topgan. Asosiy Qomusimizning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi," - deb belgilangan¹⁷. mazkur modda nafaqat xalqaro huquq normalariga muvofiq, balki ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning mavqeini oshirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Ayollar tadbirkorligini ijtimoiy-huquqiy asoslari ham mazkur normaga asosan tashkil etiladi va qo'llab-quvvatlanadi. Konstitutsiyaning XII bobi "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" deb ataladi, unda fuqarolarning iqtisodiy faoliyatiga oid normalar belgilab berilgan. O'zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, mehnat faoliyati va mulkiy munosabatlariga oid rasmiy hujjatlar ushbu moddaga muvofiq ishlab chiqiladi, qabul qilinadi va amaliyotga joriy etiladi.

Tadbirkor ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ta'sirchan kuchiga, tub islohotlarning faol sub'ektlariga aylantirish asosida qator omillar yotadi. Ularni quyidagi turlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq;

- tabiiy-geografik omillar.
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar.
- ijtimoiy-madaniy omillar.
- demografik omillar.
- transmilliy omillar.

